

UDK: 619:636.31:616.9:616.084

QO'YLARNING INFEKSION ENTEROTOKSEMIYA KASALLIGI PROFILAKTIKASI

Mustaqil izlanuvchi – **Klichov O.I.**

Ilmiy rahbarlar: b.f.d., professor – **Yunusov X.B.**

v.f.d. – **Salimov I.X.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Maqolada qo'ylarning infeksiyon enterotoksemiya kasalligining epizootik holati, oldini olish tadbirlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: infeksiyon enterotoksemiya, qo'y, patogen anaeroblar, nosog'lom punkt, vaksina, giperimmunoson zardobi, profilaktika, dezinfeksiya.

Kirish. Respublikamiz birinchi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi” PQ -308 sonli va 2008 yil 21 apreldagi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirishni kuchaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-842-sonli qarorlari, bundan tashqari keyingi yillarda 845-son 2017 yil 18 oktyabrdagi “Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa ba'zasini mustahkamlash chora tadbirlari to'g'risida”, 2018 yil 16 martdagi “Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining Buxoro filiali” tashkil etilishi, PQ-4243-son 2019 yil 18 martdagi “Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida” bir qancha chorvachilikni jadal rivojlantirishga va halqimizni kundan kunga o'sib borayotgan chorva mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 03.03.2021 yil PQ-5017 «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab –quvvatlashga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida” - asosiy maqsad va yechiladigan masala mamlakatimiz ichki iste'mol bozorida go'sht, sut, tuxum, baliq, asal va boshqa turdagi chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik ozuqa bazasini kengaytirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyani keng joriy etish.

Veterinariya amaliyotida qishloq xo'jaligi va uy hayvonlari orasida uchraydigan bir qator kasalliklar borki bular nafaqat hayvonlar orasida uchraydi. Ya'ni ushbu kasalliklar hayvonlarning mahsulotlari bilan odamlar organizmiga tushadi va kasallik chaqirib ularni kasallantiradi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblangan qishloq xo'jaligida izchil islohotlarning amalga oshirilishi aholi turmush farovonligini tobora yuksaltirish, iste'mol bozorini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash imkonini bermoqda.

Mavzuning dolzarbligi: Qo'ylar kasalliklari orasida patogen anaeroblar chaqiradigan bir qator infeksiyon kasalliklar orasida, qo'ylarning infeksiyon

enterotoksemiya kasalligi alohida o'rin egallaydi. Mamlakatimizda qorako'lchilik xo'jaliklarida, fermerlar va fuqarolarning shaxsiy xo'jaliklaridagi qo'ylar uchun o'ta xavfli infeksiyon kasalliklardan hisoblangan infeksiyon enterotoksemiya kasalligiga qarshi kurashish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Qo'ylarning infeksiyon enterotoksemiya kasalligi muhim ahamiyat kasb etib, kasallikdan keladigan asosiy iqtisodiy zarar kasal qo'ylarni davolab bo'lmasligi, ularni qisqa vaqt ichida nobud bo'lishi, majburiy so'yilgan qo'ylarning go'shti istemolga yaroqsizligi sababli ularni yoqib yuborishga yoqilg'i sarflanishi va ushbu kasallikka qarshi o'tkaziladigan profilaktik tadbirlariga ketgan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Qo'ylarning infeksiyon enterotoksemiya kasalligiga qarshi samarali chora-tadbirlar yaratishda avvalo unga o'z vaqtida to'g'ri tashxis qo'yish talab qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifasi. Kasallikdan nobud bo'lgan hayvonlar patologoanatomik tekshirilib, tananing tashqi ko'rinishi, tabiiy teshiklardan ajralgan ajratmalar, ularning konsistensiyasi, ko'rinadigan shilliq pardalarning holati bo'yicha ma'lumotlar olinadi. Bundan tashqari maxsus joylarda qo'ylar yorib ko'rilib, qorin va ko'krak bo'shlig'ida suyuqlik bor-yo'qligi, bo'lsa uning ko'rinishi, ichki a'zoldagi patologoanatomik o'zgarishlar, qon quyilishlar e'tiborga olinadi va shu bilan birga parenximatoz a'zoldan laborator tekshirishlar uchun patologik namunalar olinadi. Kasallikka yakuniy tashxis qo'yishda bakterioskopiya, bakteriologik tekshirishlar amalga oshirildi.

Natijalar va ularning tahlili. Profilaktika uchun qo'tonlarni, yaylov va suv ichish joylarini veterinariya – sanitariya holatini nazorat etish zarur. Kasallikni rivojlanishiga ko'mak beruvchi omillar bartaraf etiladi. Erta bahorda maysalar chiqqanda qo'ylarni yaylovga haydamaslik kerak. Bu paytda quruq xashak berish zarur. Juda iloji bo'lmasa, qirov yoki shudring ko'tarilgandan keyin qo'ylarni yaylovga chiqarish mumkin. Barcha enterotoksemiya chiqqan hududlar hisobga olinishi va bahorda, yaylovga chiqarishdan 30-45 kun oldin qo'ylar emlanishi zarur.

Ushbu kasallik qo'ylar orasida klinik, patologoanatomik, bakteriologik aniqlansa, veterinariya Nizomi doirasida suruv yoki ferma nosog'lom deb e'lon qilinadi va unga cheklov qo'yiladi. Nosog'lom punktda barcha cheklov tadbirlarini bajarish va kasallikni tarqalmaslik choralari ko'riladi. Fermaga yangi qo'ylar kirishi, chiqishi, u yerda qirqim o'tkazish, qo'ylarni boshqa guruhlar bilan aralashtirish man etiladi.

Suruvda kasallik aniqlangandan keyin, u boshqa yaylovga o'tkaziladi, uzoq joylarga haydalmaydi. Suruvdagi qo'ylar klinik tekshiriladi. Kasal va gumonli hayvonlar ajratiladi va qo'tonda saqlanadi hamda maxsus, giperimmun qon zardobi, simptomatik va antibiotiklar bilan davolanadi. Klinik sog'lom qo'ylar qo'tonda qoldiriladi, vaksinatsiya qilinadi, ularga dag'al xashak va mineral tuzlar beriladi. Qo'ton har hafta 3% li xlorli ohak, 3-5% li o'yuvchi natriy, 10% li formaldegid, bir xlorli yod bilan dezinfeksiya qilinadi. O'lgan jasadlar terisi va juni olinmasdan kuydiriladi. Kasal qo'y go'shtga so'yilmaydi, juni, suti olinmaydi. Fermadan cheklov kasallik chiqishi tugagandan 20 kun keyin, barcha tadbirlar hamda yakuniy dezinfeksiya o'tkazilgandan so'ng olinadi.

Xulosalar

1. Qo'ylarning infeksiyon enterotoksemiya kasalligini profilaktikasi uchun har 6 oyda 1 marta emlash tadbirlarini o'tkazish kerak.

2. Qo'ylarning infeksiyon enterotoksemiya kasalligiga o'z vaqtida profilaktik maqsadda tekshirish usullar orqali epizootologik holatini aniqlashimiz mumkin.

3. Qo'ylarning infeksiyon enterotoksemiya kasalligi qo'zg'atuvchisini o'z vaqtida aniqlash, profilaktik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish orqali, qo'ylarning infeksiyon enterotoksemiya kasalligidan keladigan iqtisodiy zararni oldini olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Salimov X.S., Qambarov A.A., Salimov I.X., "Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar" darslik 2021 yil. Lesson Press MChJ nashriyoti.

2. Salimov X.S., Qambarov A.A. "Epizootologiya" darslik 2016 yil. F. Nasimov nashriyoti.

3. Klichov O.I., Yunusov X.B., Salimov I.X. Qo'ylarning infeksiyon enterotoksemiya kasalligi epizootologiyasi Veterinariya meditsinasi jurnali Maxsus son №1.2024 "Oziq-ovqat xavfsizligi: Global va milliy muammolar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 22-23 fevral 2024-yil. 129-131 betlar

4. Klichov O.I., Yunusov X.B., Salimov I.X. Qo'ylarning infeksiyon anaerobli enterotoksemiya kasalligi Veterinariya meditsinasi jurnali Maxsus son №1.2024 "Oziq-ovqat xavfsizligi: Global va milliy muammolar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 22-23 fevral 2024-yil. 132-136 betlar.

5. Ilkhomovich, K. O., Shorasul, K., & Khaitovich, S. I. (2022). Infectious Enterotoxemia Disease of Sheep Diagnostics. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(7), 91-95.

6. Ilkhomovich, K. O., Shorasul, K., & Khaitovich, S. I. (2022). Infectious Enterotoxemia Disease of Sheep Epizootology. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(7), 70-73.

7. Кличов, О., Хакимов, Ш., & Салимов, И. (2022). Кўйларнинг инфекцион энтеротоксемия касаллиги диагностикаси. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 199-203.

8. Klichov, Odil. "Infectious Anaerobic Enterotoxemia Disease of Sheep." *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES* (2023).

9. Klichov O.I., Salimov I.X. – Laboratory diagnostics of sheep infectious enterotoxemia disease Veterinariya meditsinasi jurnali Maxsus son №3 6-oktabr 2023-yil. 26-28 betlar.